

**BRMGA ERISHISH YO'LIDA XALQARO HAMKORLIK****Ilmiy rahbar:** Xudoyberganova Dilnoza

Baxtiyorova Hikoyatbonu O'tkirbek qizi

**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti****Xalqaro munosabatlar fakulteti 1-bosqich talabasi****bonubaxtiyorova946@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.20807512>****Annotatsiya**

Ushbu tezisdagi global ko'p tomonlama hamkorlikning zamonaviy rivojlanish jarayonlari hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan Barqaror rivojlanish maqsadlarining (BRM) ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlikning kuchayishi, global muammolarni birgalikda hal etish zarurati hamda xalqaro tashkilotlarning bu jarayondagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, kambag'allikni kamaytirish, ochlikka barham berish va ekologik muammolarni hal qilish kabi asosiy global vazifalar misollar asosida tahlil qilinadi. Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Keniya va O'zbekiston tajribasi orqali barqaror rivojlanish maqsadlarining amaliy natijalari ko'rsatib beriladi. Tadqiqot global hamkorlik insoniyat taraqqiyotining muhim omili ekanligini asoslaydi.

**Kalit so'zlar:** global hamkorlik, barqaror rivojlanish maqsadlari, BMT, kambag'allik, ochlik, ekologik muammolar.

So'nggi yillarda global ko'p tomonlama hamkorlik tajribalari insoniyatni umumiy maqsadlar atrofida birlashtira oldi. Davlatlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarini birgalikda hal qilishga intilmoqda. Ikkinchi jahon urushidan keyin AQSH prezidenti Ruzvelt, Buyuk Britaniya bosh vaziri Cherchil va Sovet Ittifoqi rahbari Stalin Dumbarton Oaks uchrashuvida Birlashgan millatlar tashkilotini asoslarini yaratishga kelishib oldilar. Bu tarixiy voqea edi. Maqsad urushda g'alaba qilish emas, balki kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan urushlarni oldini olishga qaratilgan edi.

Millatlar Ligasining muvaffaqiyatsiz tajribasi esa xalqaro hamkorlikni qanchalik muhim ekanligini ko'rsatgan edi. Keyinchalik davlatlar bir tomonli yopiq savdo siyosatidan voz kechib ochiq va qoidalarga asoslangan ko'p tomonlama hamkorlik timini yaratishga intildi. Bularning asosiy maqsadi iqtisodiy rivojlanish orqali tinch va farovon dunyoni yaratish edi. BMT tomonidan 2015-yilda "2030 Barqaror rivojlanish kun tartibi" qabul qilindi. Barqaror rivojlanishning asosiy 17 ta maqsadi va 169 ta vazifasini o'z ichiga olgan global dastur hisoblanadi. Bu dasturning asosiy g'oyasi "Hech kimni ortda qoldirmaslik" 2030 kun tartibi avvalgi dasturlarga qaraganda ancha keng va murakkab hisoblanadi, chunki u nafaqat rivojlanayotgan, balki rivojlangan davlatlarga ham tegishli.

Bundan tashqari, BRMLar o'zaro bog'liq bo'lib, ularni faqat bitta sohada ishlash orqali amalga oshirib bo'lmaydi. Masalan, sifatli ta'lim kambag'allikni kamaytiradi va gender tengligini qo'llab-quvvatlaydi.

Bugungi kunda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish uchun global hamkorlik juda zarur. Jahon bozori tobora kengayib bormoqda va davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy bog'liqlik kuchaymoqda. Xalqaro savdo hajmi qisqa vaqt ichida juda katta darajada oshdi va ko'plab davlatlarning iqtisodiyoti tashqi savdoga bog'liq bo'lib qoldi. Shu sababli xalqaro hamkorlik har bir davlat siyosatining muhim qismiga aylanishi kerak. Davlatlar birgalikda narxlarning keskin o'zgarishi, iqtisodiy inqirozlar va savdo muammolariga qarshi kurashish zarur. Atrof-muhit bilan bog'liq muammolar ham xalqaro hamkorlikni talab qiladi.

Okeanlarning ifloslanishi, kislotali yomg'irlar, ozon qatlamining yemirilishi va daryolarning ifloslanishi davlat chegaralarini tan olmaydi. Ko'plab mamlakatlarda esa bunday muammolarni mustaqil hal qilish uchun texnologiya yoki mablag' yetarli emas. Global muammolar esa global yechimlarni talab qiladi. Shu sababli davlatlar, xalqaro tashkilotlar va nodavlat tashkilotlar birgalikda harakat qilishi lozim. 17 ta maqsad BRMning barchasi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanishni birlashtiradi. Barqaror rivojlanishning eng muhim ustuvor vazifalaridan bittasi bu kambag'allikni barcha shakllarda tugatishdir.

Kambag'allik global iqtisodiyotning faqat daromad yetishmasligi bilan emas, balki institutsional, struktural va ijtimoiy tengsizliklar majmui sifatida namoyon bo'lmoqda. Global institutsional mexanizmlar kambag'allikka qarshi kurashda eng muhim xalqaro institutlardan biri. World Bank bo'lib, uning "Poverty Reduction Strategy Papers (PRSP)" tizimini joriy etildi va infratuzilma, ta'lim va sog'liqni saqlashga milliardlab dollar investitsiya qildi. Masalan, Bangladeshda Jahon banki ishtirokidagi mikro-moliyalashtirish dasturlari va yaratilib berilgan keng imkoniyatlar orqali ayollar tadbirkorligi qariyb 35 foizga oshdi [1]. Biroq kambag'allikni kamaytirish bo'yicha turli davlatlar tomonidan qo'llanilayotgan siyosiy va iqtisodiy yondashuvlar, dasturlar bir-biridan sezilarli darajada bir biridan farq qiladi. Malasalan, Skandinaviya modeli Norvegiya, Shvetsiya kabi davlatlarda (welfare state) universal ijtimoiy xizmatlar natijasida kambag'allik darajasi 5 foiz dan past [2]. Lotin Amerikasi modeli Braziliya, Meksikada esa "Bolsa Família" kabi shartli pul transferlari, ijtimoiy tengsizlikning nisbatan yuqoriligi natijasida kambag'allikni kamaytirish jarayoni faqat moddiy yordam berish bilan cheklanmaydi, balki samarali institutlar va adolatli ijtimoiy tizimni shakllantirish masalasi ham muhimdir. Barqaror rivojlanishning yana bir asosiy maqsadlaridan bitta bu ochilikka barham berish. Bu maqsad 2030-yilgacha ochlik va noto'g'ri ovqatlanishni tugatishni rejalashtirgan.

Hozirgi paytda urushlar, tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishi sababli dunyoda ochlik xavfi oshmoqda. Haroratning ko'tarilishi va cho'llanish va suv tanqisligi qishloq xo'jaligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada oziq-ovqat yetishmovchiligi yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli davlatlar qishloq xo'jaligini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va xalqaro oziq-ovqat dasturlarini qo'llab-quvvatlash orqali ochlikka qarshi kurashmoqda. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha 811 milliongacha odam surunkali ochlikdan aziyat chekmoqda, 283 million kishi esa og'ir darajadagi oziq-ovqat yetishmovchiligida yashamoqda.

Shu sababli, BRMning tashabbusi orqali "World Food Programme" tuzildi. Mazkur dastur 2021-yilda dunyoda kuchaygan ochlik inqiroziga javoban 43 ta davlatda (Yaman, Janubiy sudan, Somali, Afg'oniston, Nigeriya va boshqa davlatlar) yashayotgan taxminan 140 million odamga yordam ko'rsatdi [3]. Ushbu yordam asosan urush, qurg'oqchilik va COVID-19 pandemiyasi sababli oziq-ovqat tanqisligiga uchragan hududlarga yo'naltirilgan edi.

Shuningdek, bugungi kunda iqlim o'zgarishi va havo ifloslanishi dunyo uchun eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Shu sababli Barqaror Rivojlanish Maqsadlarining ekologiya va atrof muhit bo'yicha bir nechta dasturlar va konsepsiyalar ishlab chiqildi. Dunyoning ko'plab davlatlari ushbu maqsadlar asosida amaliy ishlar olib bormoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi bu borada yetakchi hududlardan biridir. 2019-yilda "European Green Deal" dasturi qabul qilinib, 2030-yilgacha CO<sub>2</sub> chiqindilarini 55 foizga kamaytirish rejalashtirildi [4].

2021-yilda bu reja yanada kuchaytirildi. Yevropa davlatlari dizel avtomobillarni kamaytirib, elektr transportni rivojlantirmoqda. Shuningdek, quyosh va shamol energiyasi keng joriy etilmoqda. Natijada ayrim yirik shaharlarda havo sifati sezilarli darajada yaxshilandi.

Afrikadagi Keniya ham ekologiya sohasida katta yutuqlarga erishgan. U yerda Olkaria geotermal elektr stansiyasi va Turkana shamol elektr stansiyasi kabi yirik loyihalar amalga oshirilgan [5]. Bu loyihalar ko‘mir va dizel yoqilg‘isiga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirib, toza energiya ishlab chiqarishga xizmat qilmoqda.

Natijada mamlakatda karbon chiqindilari kamayib, geotermal va shamol energiya yoqilg‘i ko‘mir, dizel yoqmasdan elektr ishlab chiqarmoqda. Bu Keniya Afrikadagi eng “Yashil energiya” davlatlaridan biri bo‘lishiga olib kelgan. Xitoy ham havo ifloslanishiga qarshi katta kurash olib bormoqda. 2013-yildan boshlab “Air Pollution Action Plan” dasturi amalga oshirildi. Mamlakat ko‘mir elektr stansiyalarini qisqartirib, quyosh va shamol energiyasini kengaytirdi. Shuningdek, elektr avtomobillar ishlab chiqarish juda tez rivojlandi. Pekin va boshqa yirik shaharlarda havo sifati sezilarli yaxshilandi. O‘zbekistonda esa ekologik muammolardan eng muhimi Orol dengizi inqirozidir. So‘nggi yillarda BMT, BRM va O‘zbekiston Respublikasi ekologiya va o‘rmon xojaligi vazirligi bilan hamkorlikda, 2025-yil mart oyida “Yashil Orol dengizi” tashabbusining navbatdagi bosqichini yakunladi. Bu bosqichda Qoraqalpog‘iston Respublikasining Mo‘ynoq tumani, Kazakdaryo o‘rmon xo‘jaligi hududida 80 gektar maydonga 80 000 ta saxaul ko‘chati ekildi. Mazkur loyiha Yaponiya hukumati moliyaviy ko‘magida amalga oshirilayotgan “Aral dengizi mintaqasida iqlimga chidamli qishloq xo‘jaligi orqali o‘zini o‘zi ta‘minlashni qo‘llab-quvvatlash” loyihasi doirasida amalga oshirilmoqda. 2024-yilda birinchi marta Yaponiya preparati SAP ishlatilgan. U saksavul ildiz atrofidagi namlikni saqlab turadi. 1000 ta ko‘chatga 15 gramm SAP qo‘shib ekish tajribasi o‘tkazilgan. “Yashil Orol dengizi” tashabbusi boshlanganidan beri, 5 yil ichida 658,2 gektar maydonga 823 000 dan ortiq saksovul daraxti ekilgan [6].

Xulosa qilib aytganda, global ko‘p tomonlama hamkorlik bugungi kunda insoniyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biridir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning Barqaror rivojlanish maqsadlari davlatlarni bir umumiy maqsad tinch, adolatli va barqaror dunyoni yaratish sari yo‘naltirmoqda. Kambag‘allikni kamaytirish, ochlikka barham berish va ekologik muammolarni hal qilish kabi global vazifalar faqatgina bir davlat tomonidan emas, balki xalqaro hamkorlik orqali amalga oshirilishi mumkinligi aniq ko‘rinib turibdi. Yevropa Ittifoqi, Keniya, Xitoy va O‘zbekiston misollari shuni ko‘rsatadiki, har bir davlat o‘z imkoniyatlari doirasida toza energiya, ekologik loyihalar va ijtimoiy dasturlar orqali BRM maqsadlariga hissa qo‘shmoqda. Shu sababli, global muammolarni hal qilishda davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ilmiy innovatsiyalarni rivojlantirish va barqaror iqtisodiy tizimni shakllantirish eng muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Bangladesh: Sanitation Microfinance for Rural Households  
<https://www.worldbank.org/en/about/partners/brief/bangladesh-sanitation-microfinance-for-rural-households>
2. [https://nordicwelfare.org/pub/Children\\_and\\_youth\\_at\\_risk\\_of\\_poverty/1-setting-the-scene-low-income-and-childhood-in-the-nordic-welfare-states](https://nordicwelfare.org/pub/Children_and_youth_at_risk_of_poverty/1-setting-the-scene-low-income-and-childhood-in-the-nordic-welfare-states).
3. WFP - saving lives, preventing famine | World Food Programme  
<https://www.wfp.org/stories/wfp-saving-lives-preventing-famine>
4. The European Green Deal - European Commission  
<https://commission.europa.eu/strategy-and-policy/priorities-2019-2024/european-green->

deal\_en

5. Kenya lake\_turkana\_wind\_power\_project esia\_summary.pdf

[https://www.afdb.org/sites/default/files/documents/environmental-and-social-assessments/kenya\\_-\\_lake\\_turkana\\_wind\\_power\\_project\\_-\\_esia\\_summary.pdf](https://www.afdb.org/sites/default/files/documents/environmental-and-social-assessments/kenya_-_lake_turkana_wind_power_project_-_esia_summary.pdf)

6. UNDP "Green Aral Sea" Initiative Continues Next Stage of Aral Sea Ecosystem Restoration Using Innovative Methods | United Nations Development Programme

<https://www.undp.org/uzbekistan/green-aral-sea>

